

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MUSTAQIL ISH

MAVZU: Qayta sug'urta

Bajardi: KBI-65 gurux talabasi G'iyosova M

Qabul qildi : o'q Matiyazova S

Reja:

1. Qayta sug'urtaning nazariy asoslari

2. Qayta sug'urta turlari

1. Agar sug'urtalanuvchi tomonidan ilova qilingan risk miqdori sug'urtachi qabul qiladiganidan riskdan katta (ko'p) bo'lsa, u sug'urta qilishni rad etishi mumkin. Garchi, riskning bir qismini o'zida qoldirish va mijozni yo'qotmaslik (hozir yoki keyinroq boshqa risklarni ham taklif qilishi mumkin bo'lgan) uchun sug'urtalovchilar riskni (qayta sug'urtalashni) bo'lishi yoki sug'urtadan o'zlarini himoya qilish uchun foydalanishlari mumkin. Ikkinchi (qayta sug'urtalash deb ataluvchi) usul sug'urtalash – riskni taqsimlash asosiy prinsipini bir qismidir.

Qayta sug'urtalash yirik mulkiy risklarni taqsimlash metodlaridan biri hisoblanadi, lekin javobgarlik (mas'uliyat)ni sug'urtalashda kamdan kam qo'llaniladi. Ushbu metodni realizatsiya qilish usuli sodda va ko'p hollarda qo'l keladi, muammolari bo'lsa ham. Birinchidan, katta zarar ko'rish holatlarida hamma qayta sug'urta qiluvchilar alohida cheklarni yubora boshlaydilar. Agar qayta sug'urtalashda ko'p sonli sug'urtalanuvchilar ishtirok etsa, bu og'irlik qilishi mumkin. Ikkinchidan, vositachi katta riskni joylashtirishda ko'p sonli qayta sug'urtalanuvchilar bilan aloqada bo'lishi (bog'lanishi) kerak bo'ladi, ularning har biri o'z sig'imiga ko'ra riskning faqat bir qismini qoplashga tayyor bo'ladi.

Qayta sug'urta sug'urtaning mustaqil tarmog'i.

Qayta sug'urta yordamida:

- sug'urtachini sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy zararlardan ximoya qiladi;
- sug'urtachining imkoniyatlar doirasini kengaytiradi;
- Katta hajmdagi sug'urta risklarini (tavakkalchiliklarini) jahon sug'urta xo'jaligida ikkilamchi tartibda qayta taqsimlaydi.

Qayta sug'urtalash - sug'urtalashga riskni qabul qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi (risklarni ikkilamchi joylashtirish).

Qayta sug'urtalash orqali sug'urtalovchi muvozanatlashgan sug'urta portfelini yaratish va sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini o'zaro kelishilgan holda boshqa sug'urtalovchiga berishi (riskni ikkilamchi joylashtirish). Qayta sug'urtalash operatsiyalari bilan bir qatorda asosan, ixtisoslashgan qayta sug'urtalash kompaniyalari amalga oshiradi.

Qayta sug'urtalash quyidagi shakllarga ega:

- aktiv (riskni berish);
- passiv (riskni qabul qilib olish) ko'rinishida bo'ladi.
- Bundan tashqari qayta sug'urtalash nisbiy va nonisbiy shaklda bo'ladi.

Qayta sug'urtalash shartnomasini sotib olish (egalik qilish) to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi o'rtasida tuziladi, bunda sug'urtalovchi hech qanday rol o'ynamaydi. Izchillik, taxminan quyidagicha: agar hatto qayta sug'urtalovchi bevosita sug'urtalovchining oldidagi majburiyatini bajarmaganda ham bevosita sug'urtalovchi oldida to'liq javobgar bo'ladi. Qayta sug'urtalovchi o'z majburiyatlarini bajarilmaganini havola qilish bilan o'zini oqlay olmaydi, chunki qayta sug'urtalash shartnomani sug'urtalanuvchi va bevosita sug'urtachi orasidagi shartnomaning bir qismi hisoblanmaydi. Amaliyotda sug'urtalanuvchilarning asosiy ko'pchiligi qayta sug'urta mavjudligini bilmaydi ham.¹

Qayta sug'urtalovchi broker sug'urta kompaniyasi va qayta sug'urtalovchi kompaniyasi o'rtasida vositachi vazifasini o'taydi.

¹ Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain, 1993

Sedent atamasi riskni ikkilamchi joylashtirishni amalga oshiruvchi sug'urta kompaniyasi.

Ikkilamchi sedent retrotsedent deb ataladi.

Sessiya – sug'urta riskini qayta sug'urtalashga berish jarayonidir.

Qayta sug'urtalash sug'urtachiga sug'urta faoliyatida mavjud bo'lgan quyidagi risklar ta'sirini minimallashtirishga imkon beradi.

Qayta sug'urta shartnomasi dastlab Tenul shahrida, 1970 yilda, ikki savdogar o'rtasida tuzilgan.

Keltirilgan qayta sug'urta ta'rifi va boshqa shu kabi tushunchalar qayta sug'urtaning iqtisodiy mohiyati bo'yicha bir qancha xulosa qilishga yordam beradi:

Qayta sug'urta shartnomasining predmetini asosini sug'urtachining to'g'ridan to'g'ri sug'urta shartnomasi asosida qabul qilingan zararni to'lash riski tashkil qiladi. Hozirgi zamon texnikaviy o'zgarishlar va qayta sug'urta imkoniyatlarining kengayishi qayta sug'urta sohasida ham jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda.

Qayta sug'urta shartnomasida riskni qabul qiluvchi boshqa sug'urtachi (qayta sug'urtachi) bo'lib maxsus, qayta sug'urtachi jamiyatlar yoki qayta sug'urta bilan qo'shimcha ravishda shug'ullanuvchi sug'urta tashkilotlari shaxslar xizmat qilishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi sug'urtachi bilan to'g'ridan to'g'ri sug'urta shartnomasini tuzishda imzolangan qayta sug'urta shartnomasi to'g'risida bilmasligi mumkin. Qayta sug'urta yordamida mavjud risklarni ikkilamchi tartibda qayta taqsimlanadi. Risklarni ikkilamchi taqsimlanishida sug'urtachi, qayta sug'urtachi yoki bir qancha qayta sug'urtachilar ishtirok etishlari mumkin. Qayta sug'urta

munosabatlarida sug'urtalanuvchi va qayta sug'urtachi o'rtasida hech qanday xuquqiy munosabatlar paydo bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi xududida sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga litsenziya berish tartibiga asosan, qayta sug'urta bilan shug'ullanuvchi sug'urta jamiyatlari maxsus litsenziyaga ega bo'lishi lozim. Qayta sug'urtachi tashkilotlar Ustav jamg'armasi kamida 6 mln evroni tashkil qilishi va kamida 90 % pul mablag'i bilan kiritilgan bo'lishi zarur.

Ba'zi mamlakatlarda sug'urta tashkilotlarining qayta sug'urta faoliyati alohida sug'urta turlariga qarab qayta sug'urtaning ma'lum sug'urta turiga ixtisoslashishi mumkin.

O'z nomidan va qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuvchi sug'urtalovchining topshirig'iga binoan qayta sug'urta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs qayta sug'urta brokeri hisoblanadi.

Retrotsedent- qabul qilib olingan qayta sug'urtalash riskini retrotsessiyaga (ikkinchi qayta sug'urtalash) beruvchi sug'urta yoki qayta sug'urtalovchi kompaniya.

Retrotsessionariy-retrotsedentdan riskni qabul qilib oluvchi qayta sug'urtalovchi kompaniya.

Retrotsessiya- 1) qayta sug'urtalashga ilgari qabul qilib olingan risklarni yana qayta sug'urtalashga berish; 2) risklarni uchlamchi joylashtirish.

Qayta sug'urtalovchi broker - ikkita sug'urta kompaniyasi o'rtasidagi professional vositachi.

Qayta sug'urtalovchi - sug'urta brokeri yordamida qayta sug'urtalash uchun riskni qabul qilib oladigan jismoniy yoki yuridik shaxs. Qayta sug'urtalovchi

yordamida riskni ikkilamchi taqsimlash amalga oshiriladi. Qayta sug'urtalovchi sifatida sug'urta kompaniyasi ham bo'lishi mumkin. Jahondagi eng yirik qayta sug'urtalovchilar guruhiga Myunxen qayta sug'urtalash jamiyati, SHveysariya qayta sug'urtalash jamiyati, Kyoln qayta sug'urtalash jamiyatlari kiradi.

Qayta sug'urtalashni sotib oluvchilar

- * To'g'ridan-to'g'ri (bevosita) sug'urtalovchilar. Bu guruh sug'urtani (hamma) hohlovichlarga sotuvchi oddiy sug'urtachilardan iborat. Ular sug'urtalarni biz yuqorida ta'riflagan sabablarga ko'ra sotib oladilar va ushbu bobda biz bunga batafsil to'xtalamiz.

- * Keptiv sug'urta kompaniyalari. Bu kompaniyalarning egalari sug'urta biznesiga tegishli emas va odatda, ular muassis (ta'sischi) kompaniyaga xizmat ko'rsatadilar. Boshqacha aytganda, ishlab chiqarish kompaniyalari sho'ba firmalarni tashkil qila oladilar, sug'urta kompaniyalari ularning riskini sug'urta qiladi. Ushbu Keptiv kompaniyalar hamma riskni o'zlariga oladigan darajada katta emaslar va odatda himoya uchun qayta sug'urtalash badal (qoplama)larini qo'llaydilar. Keptiv riskning bir qismini yoki qayd etilgan foizni olib qolishi mumkin, riskning qolgan asosiy qismi esa qayta sug'urtalanadi.

- * Lloyd sindikatlari

Lloydning har bir sindikati cheklanmagan mas'uliyat (javobgarlik) ostida bo'lgan individual a'zolardan iborat. Qayta sug'urta himoyasi ular ehtimol tutilgan xususiy (shaxsiy) yo'qotishlarini cheklashga yordam beruvchi vosita hisoblanadi.

- * Qayta sug'urtalovchilar

Biz aytib o'tganlardan oxirgi sotib oluvchi (xaridor) qayta sug'urtalovchining o'zi hisoblanadi. Alohida qayta sug'urtalovchilar ham sug'urtalanuvchilar yoki bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) sug'urtalovchilar kabi himoya izlaydilar. Ular kutilmagan yo'qotishlardan himoyalanmaganlar va qayta sug'urta himoyasini

sotib olish bilan o'zlarining xususiy moliyaviy barqarorliklarini xavfsizlantirishlari mumkin.²

2 Fakultativ qayta sug'urtalash - proporsional qayta sug'urtalash shartnomasining turi. Fakultativ qayta sug'urtalashda har bir berilayotgan risk bo'yicha alohida shartnoma tuziladi. Sedent har bir risk bo'yicha qayta sug'urtalash zarur yoki zarur emaslik masalasini mustaqil ko'rib chiqadi. O'z navbatida, qayta sug'urtalovchi ham sedentning taklifini qabul qilishi yoki qabul qilmasligi ham mumkin.

Fakultativ obligator shartnomasi - sedent qayta sug'urtalovchi bilan kelishgan toifadagi har qanday sug'urta riskini berishi, qayta sug'urtalovchi esa ularni qabul qilishi shart ekanligi haqidagi qayta sug'urtalash shartnomasi.

Sedent - riskni ikkilamchi joylashtirishni amalga oshiruvchi, ya'ni riskni qayta sug'urtalash uchun beruvchi sug'urta kompaniyasi. Ikkilamchi sedent retrotsedent deb ataladi.

Sessiya - 1) sug'urta riskini qayta sug'urtalashga berish jarayoni. Sedent va qayta sug'urtalovchi o'rtasidan huquqiy munosabatlarda ishlatiladi. 2) Xorij amaliyotida sedentning olingan sug'urta mukofoti ma'nosini bildiradi.

Sug'urta munosabatlarida nisbiy qayta sug'urta turi muhim o'rin egallaydi. Proporsional qayta sug'urtalash tarixan kelib chiqishiga ko'ra XIX asrda riskni qayta taqsimlash shaklining umumiy turi sifatida yaratilgan.

Bu nuqtai nazardan proporsional qayta sug'urtalash yana an'anaviy qayta sug'urtalash ham oladi. Qayta sug'urtasi shuni ko'ib o'adiki, unda qayta sug'urtalovchining riskini qoplash uchun sedentning shaxsan o'zining qatnashuvi bilan yuzaga keladigan shartnoma.

² Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain, 1993

Nisbiy qayta sug'urta qilishning asosiy mohiyati shundaki, qayta sug'urtalovchi kompaniyaning riskni taqsimlashdagi ulushi sug'urta kompaniyasi aniqlagan nisbat asosida oldindan aniqlanadi. Ushbu nisbatga qarab, qayta sug'urtalash mukofotining va sug'urta kompaniyasining tegishli ulushi aniqlanadi. Nisbiy qayta sug'urta qilishning prinsipi "qayta sug'urtalovchi sedentning riskini bo'ladi" degan fikrdan iborat.

Qayta sug'urta vositachalari

* Qayta sug'urtalash brokerlari. Qayta sug'urtalash o'zida faoliyatning murakkab va tor ixtisoslashtirilgan sohasini aks ettiradi va sotib oluvchilarga zarur badal (qoplash)ni sotib olishlari yoki ishonchli, qayta sug'urtalovchilarni tanlashda yordam kerak. Ushbu jarayonda qayta sug'urtalash brokerlari muhim rol o'ynaydi. Ularda qayta sug'urtalash va jahon qayta sug'urtalanuvchi riski borasida maxsus bilimlar bor.

* Boshqaruv bo'yicha konsultantlar Keptiv sug'urta kompaniyalarining o'sishi kompaniyalar va boshqaruv bo'yicha konsultantlar (maslahatchilar)ning rivojlanishiga olib keldi. Bu kompaniyalar Keptiv egalari bo'lgan tashkilotlarga boshqaruv xizmatlarini taklif etadi. Bitta boshqaruvchi kompaniya bir nechta Keptiv kompaniyalar ishlarini nazorat qilishlari mumkin, Keptiv sug'urta kompaniyasini boshqarish funksiyasigaga esa ko'pincha qayta sug'urtalashni joylashtirish ham kiradi.

Sug'urta ishi amaliyotida nisbiy qayta sug'urtalashning quyidagi shakllari mavjud:

- * Kvotali qayta sug'urta qilish;
- * ekssedent qayta sug'urta qilish;

* Kvotali-ekssedent qayta sug'urta qilish.³

Qayta sug'urtalash asosida shartnoma yotadi. Bunda bir taraf sedent- ya'ni to'liq yoki qisman sug'urta riskini, ikkinchi tomon qayta sug'urtalovchiga beradi. Qayta sug'urtalash shartnomasida qayta sug'urtalovchining zarani qoplash holati ham xuddi shunday munosabatda amalga oshiriladi. Umumiy shaklda proporsional qayta sug'urtalash qayta sug'urtalovchi sedent riskini bo'lish tamoyili asosida amalga oshiriladi.

Sug'urta ishi faoliyatida bir qancha proporsional qayta sug'urtalash

shartnomalari mavjud. Bular: kvotali, ekssedentli, kvota- ekssedentli.

Xalqaro amaliyotda nisbiy qayta sug'urta mexanizmidan keng foydalaniladi. O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta tashkilotlari tomonidan mazkur sug'urta mexanizmidan foydalanilsada, talab darajasida rivojlanmagan. O'z navbatida nisbiy qayta sug'urta ikki kichik turidan tarkib topgan. Ular – kvotali qayta sug'urta va ekssedent summasi asosida nisbiy qayta sug'urta turlaridir.

Kvotali qayta sug'urtalash shartnomasida sedent qayta sug'urtalovchiga riskning berilgan turi bo'yicha hamma ulushni berishga, qayta sug'urtalovchi esa bu ulushni qabul qilib olishga majburdir. Odatda qayta sug'urtalash ulushi sug'urta summasiga nisbatan % (foizda) hisoblanadi. Ba'zida qayta sug'urtalovchining qatnashishi aniq bir summa (kvota) bilan belgilangan bo'ladi. Bundan tashqari bunday qayta sug'urtalash shartnomalarida qayta sug'urtalovchining hohishiga kqra riskning yuqori chegarasi (limit) belgilanadi. Kvotali qayta sug'urtalash shartnomalari oddiy va sedent uchun qulaydir. Sedent qayta sug'urtalovchiga ma'lum bir muddatda kelib tushgan sug'urta badallaridan o'zining hisobida riskni qtkazgani uchun, komission mukofotni olib qolgan holda proporsional ravishda qtkazib beradi. Bu holatlar avvaldan

³ Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain, 1993

shartnomani tuzishda kqrsatilgan bo'ladi. SHu narsani hisobga olish kerakki, kvotali qayta sug'urtalash shartnomasi boshqa qayta sug'urtalash shartnomasidan farqi shundaki, sedentning mukofot puli qolganlaridan ko'proq bo'ladi. Bu qayta sug'urtalovchi uchun yuqori darajadagi sug'urta badallari kelib tushishini ta'minlaydi. Tahliliy xususiyatda zararlarni boshqarish olib boriladi. Qayta sug'urtalovchi sedentdan olgan ulushga asos ravishda qqyilmaning ham ma'lum qismini berib boradi. Odatda qayta sug'urtalovchi sedentni sug'urtalovchilar bilan bo'ladigan xarajatlarda qatnashadi. Kvotali qayta sug'urtalash kqrsatilgan shartlarga qaramasdan u belgilangan maqsadlarga erisholmaydi. Kvotali qayta sug'urtalash shundayki shartnoma bo'yicha riskini kamaytiradi.va sedentni sug'urta portfelini qoplash uchun ketadigan aralashuvni ham kamaytiradi.

2.“Qayta sug'urta shakli” tushunchasi sug'urtachi va qayta sug'urtachi o'rtasidagi o'zaro munosabatni, sug'urtaning alohida turi bo'yicha tuzilgan shartnoma asosida berilgan va qabul qilingan risklarni, tomonlarning o'zaro huquq va majburiyatlarini anglatadi.

“Qayta sug'urta turi” tushunchasi sug'urtachilarning majburiyatlar yuzasidan o'zaro hisob-kitob olib borish texnikasining o'ziga xos xususiyatlarini, qayta sug'urta uchun berilgan risk ulushlarini, qayta sug'urta mukofotini to'lash qoidalarini, shartnoma bo'yicha yuzaga kelgan sug'urta hodisasi zararlarini qayta sug'urtachi tomonidan qoplash tartiblarini belgilaydi.

Qayta sug'urta turi :

- klassik;
- moliyaviy qayta sug'urta shakli;
- fakul'tativ;
- obligator qayta sug'urtaning ko'rinishi;

- nisbiy qayta sug'urta;
- no nisbiy qayta sug'urtaning kichik ko'rinishi;
- Kvotali - eksedent summasi,
- Ekssedent zarari – zararlilik eksedenti.

«Fakultativ» qayta sug'urta shartnomalarida sug'urtachi va qayta sug'urtachi xar-bir sug'urta risklarini alohida holat sifatida ko'rib chiqadilar, riskni qayta sug'urtaga berish va qabul qilish yuzasidan qarorlarni alohida qabul qilinadilar.

Fakultativ qayta sug'urta tomonlar kelishuvini belgilovchi qayta sug'urtaning mustaqil shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

To'g'ridan-to'g'ri sug'urtachining fakultativ qayta sug'urtalash to'g'risidagi taklifida qayta sug'urtachiga riskni to'g'ri baholash uchun zarur bo'lgan, risk to'g'risidagi barcha ma'lumot bo'lishi zarur. Odatda to'g'ridan to'g'ri sug'urtachi tomonidan qayta sug'urtachiga berilgan ma'lumotda quyidagi axborotlar bo'ladi:

- sug'urtachining nomi va manzili;
- sug'urta turi;
- qayta sug'urta turlari: nisbiy va no nisbiy;
- riskni joylashgan joyi, (mamlakat, manzili)
- manfaatdor shaxs;
- sug'urta shartlari, sug'urtalangan xavf (muhimlaridan qaysilari to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasiga kiritilgan, qaysilari shartnoma tarkibiga kiritilmagan, yoki shartnomaning standart shartlarini o'zgarishi sanab qtilishi zarur);

- jami sug'urta so'mmasi (sug'urtalash valyutasida maksimal mumkin bo'lgan zarar so'mmasi, mukofot foyizi);

- sug'urtachi franshizasi;

- qayta sug'urta mukofoti, qayta sug'urta komissiyasi va boshqa xarajatlar;

- fakultativ qayta sug'urtaning boshlanish va tugash sanasi;

- taklif qilingan qayta sug'urta ulushi;

- zararlarni oldini olish imkoniyatlari va chora tadbirlari;

- syurver hisobotini taqdim qilish imkoniyatlari;

- qayta sug'urtaga berilayotgan sug'urta manfaati, sug'urta ob'ekti tug'risidagi to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalarining statistikasi (imkoniyat doirasida, kamida oxirgi 5 yil mobaynida);

- amaldagi boshqa qayta sug'urta shartnomalari bilan birlashtirish imkoniyatlari, qayta sug'urtalanayotgan fakultativ risklarga tadbiriq qilinmokchi bo'lgan qayta sug'urta qoplamasi ko'rsatilishi lozim;

- sug'urtachining to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha shaxsiy chegrimning ulushi va miqdori;

- to'g'ridan to'g'ri sug'urtachining nomi va agar bo'lsa, hamsug'urtachilarni ko'rsatish.

Fakultativ qayta sug'urta shartnomasiga qayta sug'urtachi tomonidan rozilik bildirilgan daqiqadan kuchga kiradi.

Obligator qayta sug'urtalash shartnomasiga asosan sug'urtachi qayta sug'urtachiga kelishilgan hududda aniq belgilangan risklar bo'yicha to'zilgan barcha to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari qayta sug'urtaga beriladi

Obligatorli qayta sug'urtalash xalqaro amaliyotda ikki xil ma'noni bildiradi:

1) qayta sug'urtalashning majburiy shakli. Ayrim mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra, ushbu mamlakat hududida faoliyat kqrsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalari qabul qilgan risklarini bir qismini majburiy ravishda qayta sug'urtalash kompaniyasiga beradi. Bu chora qayta sug'urtalash orqali chet elga valyuta chiqib ketishini oldini oladi;

2) sug'urta kompaniyasi (sedent) ma'lum bir sug'urta turi buyicha riskni qayta sug'urtalovchiga berishini va o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi, riskni qabul qilishni nazarda tutuvchi qayta sug'urtalash shartnomasi. Fakultativ-obligator shartnomasi - sedent qayta sug'urtalovchi bilan kelishgan toifadagi har qanday sug'urta riskini berishi, qayta sug'urtalovchi esa ularni qabul qilishi shart ekanligi haqidagi qayta sug'urtalash shartnomasi.

Obligator qayta sug'urta shartnomalarini imzolanishida tomonlar yuzaga keluvchi zararlarni yoki qayta sug'urtalashga qabul qilingan risklarni qayta sug'urta qoplamasi bilan ta'minlash shartlarini kelishib olishlari lozim. Obligator qayta sug'urta shartnomasi «zararlar paydo bo'lgan yil» «kalendar yili» shartlarida imzolanadi.

Nisbiy qayta sug'urta (proportional reinsurance)-qayta sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlar miqdorini aniqlashning keng tarqalgan usulidir. Nisbiy qayta sug'urta shartnomasini imzolahda tomonlarning qayta sug'urta mukofotini to'lash, zararni qoplash majburiyatlari kelishilgan holda, nisbatda (foizda) belgilanadi. U ikkiga - nisbiy kvotali qayta sug'urta va ekssendent so'mmasi asosida qayta sug'urta turlariga bo'linadi.